

Course: History of the Eastern and Western philosophy

Lecture 10: The Formation of Romanticism in
German Enlightenment Tradition XVIII and XIX

Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova

NEMIS MA'RIFATPARVARLIGIDA ROMANTIZMNING SHAKLLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Iogan Gotfrid Gerder tarix falsafasining gumanistik xususiyati.

Gotxold Lessing romantizmining falsafiy mazmuni.

Fridrix Shillerning estetik utopiyasi.

Iogan Getening san'at falsafasi.

Tayanch so'z va iboralar:

Tarix falsafasi, tarixiy taraqqiyot g'oyasi, insonparvar tarix, estetik utopiya.

Darsning maqsadi: nemis romantizm falsafasi bo'yicha atroflicha va chuqur bilimga ega bo'lish; nemis romantizm falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni qiyosiy tahlil qilish; nemis romantizm falsafasi bo'yicha talabalarning bilimni kengaytirish; falsafiy manbani tahlil qilish ko'nikmalarini Shakllantirish.

XVIII asr nemis falsafasining barcha vakillarida bo'lganidek Iogan Gotfrid Gerdyerda ham falsafaning hamma sohalarida Yangi bir qarashni ifodlashga intilish kuchli bo'lgan. Uning ijtimoiy-siyosiy ta'limotida inson va uning jamiyatdagi o'rni masalasi dolzarbligiga alohida e'tibor qaratiladi. Sir emaski, inson barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Germaniyada XVIII asrda tarqoqlikdan markazlashgan davlatga birlashish jarayoni davom etadi. Bundan ko'rinadiki, nemis jamiyati mazmunan almashinuv, Shaklan Yangilanishni boshidan kechirayotgan edi. Bunday davrda esa har bir jamiyat a'zosining katta ijtimoiy-siyosiy faolligi o'ta muhim edi. O'sha davr ziYoli qatlami vakili Iogan Gotfrid Gerder o'z qarashlarini ayni Shu jarayonlar bilan bog'liq holda ko'rdi.

Buyuk nemis olimi **Iogan Gotfrid Gerder 1744 yilda** Sharqiy Prussiyaning uncha katta bo'lmagan Morungen Shahrida tug'iladi. 1762 yilda o'rta maktabni

tamomlagach Keningsberg universitetining ilohiyotchilik fakultetiga o'qishga kiradi. U yerda o'z zamonasining buyuk mutafakkirlaridan biri Immaniul Kantning metafizika, mantiq, matematika, fizik geografiya faniga oid ma'ruzalarini diqqat bilan tinglab boradi. Gerdyerda Kantning aniq, lo'nda, muammoning mohiyatini ochadigan tarzda Yozib olgan ma'ruza matnlari saqlanib qolgan. Kantning tanqidiy davrgacha bo'lgan asarlari Gerder dunyoqarashining Shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'z ustozini Gerder doimo chuqur ehtirom bilan Yodga oladi: "Uning ochiq chehrasi, Shirin so'zligi, hazilkashligi, o'tkir zehni o'zining boy fikrlarini yanada bezab turardi. Hazillardan juda zo'r foydalan edi. Shuning bilan birga jiddiyligini ham sezdirib turar edi. Uning ma'ruzalari hamma vaqt qiziqarli va ommaviy suhbat xarakterida o'tar edi".

Gerderga ta'sir qilgan yana boshqa mutafakkir Kantning yaqin tanishi, lekin fikran uning raqibi – Iogan Georg Gaman (1730-1788 yillar) edi. Aniq va tabiiy fanlarga butunlay begona bo'lgan, iqtidorli adib va adabiyot bilimdoni, diniy dunyoqarashga ega Gaman Yosh Gerder tafakkurini Kantga nisbatan yanada chuqurroq egallaydi. Yoshlik chog'ida ikki bir-biriga zid bo'lgan ustozlarning ta'limini olishi Gerdyerda ham ikki qarama-qarshi dunyoqarashni Shakllantiradi, ya'ni bir tomondan ma'rifatparvar-olim, ikkinchi tomondan protestant pastor sifatida Shakllanadi.

1764 yilda Gerder Keningsbergdan butunlay ketadi. Rigada cherkov maktabi rektori Yordamchisi lavozimida ishlaydi. Gerder bu yyerda faol pedagogik faoliyatini olib boradi. Natijada uni Peterburgka o'qituvchilik lavozimiga chaqiradilar. Gerder bu taklifdan bosh tortadi, chunki u o'zini Riga bilan bog'langanday his qiladi. Bu yyerda Gerder Sharoitga tezda ko'nikib, "qaynoq rus vatanparvariga" aylanadi. Riga Gerderni o'zining erksevar ganzeyalik an'analari bilan maftun qilgan edi. U bu Shaharni Jenevaga qiyoslaydi, o'zini prusscha kazarmali-byurokratlashgan tartiblaridan uzoqda bo'lganligi uchun juda engil his qiladi.

Shunga qaramasdan, beSh yillik muvafaqqiyatli faoliyatidan so'ng Gerder o'z xohishiga binoan iste'foga chiqish uchun ruhsat so'raydi va Rigani tark etadi. Bu harakatning asl maqsadi bizga qorong'iligicha qoladi.

Gerderning Rigada yashagan davrlari jadal ijodiy yuksalish davri bo'ldi. Uning birinchi ishlari "Eng Yangi nemis adabiyoti fragmentlari" (1766-1768), "Tanqidiy qarmoq" (1769) Rigada Yozildi va uni elga tanitdi. Bu yyerda Gerder tanqidchilik va estetikaning materialistik ruhda bo'lgan ko'rinishlariga qarshi chiqqan Vinkelman va Lessing ta'limotlarining himoyachisi bo'lib kurashadi. Bu yillarda Gerderning falsafiy dunyoqarashi Shakllanib boradi. U panteizm va materializm tomonga og'a boshlaydi. Gerder jonning nomoddiylikiga Shubhalangan edi. Lekin cherkov dogmalarida jon mutlaqo ruhiy deb hisoblanar edi. Gerderning bu kabi qarashlari uning faoliyati mazmuniga zid kelganligini tushunish mumkin. u o'zining bu tarzdaqi qarashlarini pedagogik faoliyati bilan aralashtirib yuboradi. O'zi qayg'uradiki –"O'zim bilan o'zim, Shaxsiy faoliyatim bilan vazifalarim zid kelib qoldi". Shuning uchun bo'lsa kerak u Rigada ham ko'p qololmadi va Parijga Yo'l oladi.

Nemis ma'rifatparvarlari bilimlarni kengroq Yoyishga intilar edilar. Shuningdek, dinga juda ehtiyotkorlik bilan YondaShar edilar. Gerder dinni isloh qilishga, uni fan va axloqiy tarbiyaga mos tomonlarini o'rganish va ko'rsatishga intiladi. Ta'kidlash kerakki, Germaniyada XVIII asrda ateizm juda kam ko'rinadi.

Gerdyerda ikki xil figura ifodalanadi. U Monteske Shaxsini va ijodini hurmat bilan tilga oladi. Parijga kelgach Gerder D'Alamber va Didro bilan tanishadi. YOzuvchi-olim Didroga fransuz ma'rifatparvarligining eng buyuk vakili sifatida yuksak baho beradi. Gerderning qarashlari Didroning "San'at-tarbiya rolini o'ynaShi kerak", degan fikrlari bilan hamohang edi. "Men Didroning chaqirig'ini himoya qilaman", - deydi Gerder. Bu bir tomoni, boshqa bir tomondan u cherkov faoliyatida mansab pillapoyasidan asta ko'tarilib boradi.

Gerder o'z vataniga Antverpen va Amstyerdam orqali qaytadi. Ikki haftani u Gamburgda Lessing jamoasida o'tkazadi. Bu ikki xafta uning umrida birinchi va oxirgi marta Lessing bilan uchraShuvi bo'lib qoladi. Keyin esa Eytenga Yo'l

oladi. Gerder u yerda knyaz episkopining xizmatida bo‘ladi. 1777 yilning kuzida Gerder Strasburgga keladi. Bu yyerda o‘zining “Tilning kelib chiqishi haqida” traktatini Yozadi. Xuddi Shu yerda, Gerder Gyote bilan yaqindan tanishadi. U Gyoteda chuqur taassurot uyg‘otadi. “Gerder tufayli men tasodifiy Yangi g‘oyalar bilan o‘rtoqlashdim va tanishdim”, - deydi Gyote.

Shunisi qiziqki, Gyote Gerderning ikki xil qiyofasini anglab qoladi. “Gerder o‘tkir aql sohibi, lekin o‘z xarakterining boshqa tomonini ham ko‘rsatib qo‘yar edi”. Uning qarashlaridagi ikki xillikni Gyote aniq payqadi. Lipp grafligiga qarashli Byukenburg Shahrida beSh yil (1771-1776 yillarda) yashaydi. 1773 yilda Gyote bilan hamkorlikda “Nemis xarakteri va san‘ati” nomli to‘plam nashr ettiradilar. Bu to‘plamda Gerder o‘zining SHekspir va xalq ko‘shiqslari haqidagi g‘oya va qarashlarini ifoda etadi. Gerder Byukenburgda diniy ma‘lumotlarni, Yangiliklarni topishga intiladi va 1774 yilda “Insoniyatning qadimiy hujjati” nomli asarini Yozadi. Shu yerda u Injil ilohiy Yangilik mahsuli degan fikrni qat‘iy himoya qiladi. Keyinchalik Injilni chuqurroq o‘rgangach, Gerder bu fikrlarini inkor etgan holda kitobga xalq She‘riyatining kundalik xotirasi sifatida qaray boshladi[4, 615]. 1782 yilda Yozgan “YAxudiy She‘riyatining ruhi” asarida bu fikrga qat‘iy urg‘u beradi. Byukenburgda o‘zining “Plastika” (1773), “Inson jonini bilish va his qilish” (1774), “Insoniyat tarbiyasi uchun yana bir tarix falsafasi” (1774) va og‘zaki ijod namunalariidan parchalar Yozib qoldiradi.

Gerder hayoti va ijdodidagi Yangi davr uning 1776 yilda Veymarga qilgan tashrifidan boshlanadi. Bu yyerda ham Gerder Gyote bilan birgalikda biologiya va tabiiy fanlar bilan Shug‘ullanadi.

1784-1791 yillarda Gerder o‘zining asosiy falsafiy asari “Insoniyat tarixi falsafasi haqidagi g‘oyalar” asarini nashr qiladi. Shu bilan bir davrda “Xudo, bir nechta munozaralar” (1757) asari bilan ish olib boradi. Keyinroq esa “Insonparvarlikni rag‘batlantirish uchun maktublar” (1793-1797) asarlarini hamda “Adresteya”ni (1801-1803) Yozadi. Shuningdek, I.Kant asariga qarshi “Sof aql tanqidiga metatanqid” (1799) va “Kalligona”ni Yozib bitiradi. Gyote bilan Gerder “hur fikrlovchilar” to‘garagini tashkil qiladi [4, 612]. Gyote ta‘kidlaganidek,

Gerder asarlari ichida Shoh asar “Insoniyat tarix falsafasi haqidagi g‘oyalar” asari hisoblanadi. Bu kitobga Sharh berishdan avval uning nomlanishi, ya’ni sarlavhasini Sharhlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. O‘z davrida bunday nomlanish keng Yoyilgan edi. Ya’ni, sarlavhani bu tarzda qo‘yilishi ziYolilar ichida ancha ommalashgan edi. Masalan, V.Gumboldtning “Davlat chegaralarini o‘rnatishga oid g‘oyalar” (1792), Shellingning “Tabiat falsafasiga oid g‘oyalar” (1797), Bouteverekning “Umumiy appodiktika uchun g‘oyalar” (1799), Veymarning “Diniy e’tiqod taraqqiyotiga oid g‘oyalar” (1805-1815); undan tashqari Avgust fon Eyzildenning (1754-1837) “G‘oyalar”i kabilardir. XVIII asrda “g‘oyalar” so‘zining qo‘llanilishi ilmiy termin sifatida hozirgi davrdagidek ahamiyat kasb etadi.

Umrining oxirgi yillarida Gerder Yolg‘izlanib qoladi. I.Kantga qarshi chiqqanligi uchun Shiller, SHERdyerdan uzoqlashadi. Dastlabki vaqtda ular juda yaqin bo‘lgan edilar. Shuningdek, Gyote bilan ham aloqa soviy boshlaydi. **1803 yilning 8 dekabrda** Gerder olamdan ko‘z Yumadi.

Gerderning g‘oyalari bir tomondan umumiy tarixiy prinsipini qamrab olgan inson tashqi va ichki tuzilishi haqidagi ma’lumotni anglatrsa, ikkinchi tomondan to‘la falsafani anglatishga qodir emas. Shuning uchun I.Kant Gerder g‘oyalaridan falsafiy metod topa olmagan.

XIX asrgacha nemis “MenSheit” atamasi insoniyatning birligini anglatardi. U “Humanitas”dan ba’zi jihatlari bilan farqlanadi. Gerdyerdan boshlab (Insonparvarlikni rag‘batlantirish uchun 10 ta maktub)da “Humanitas” to‘liq ma’noda ishlatila boshlandi. Rus tarjimonlari XIX asrning 20 yillaridan boshlab uning asarini “Insoniyat tarixi falsafasi haqida fikrlar” deb tarjima qila boshladi [4, 650].

Asarning birinchi nashri Rigada F.Xartiknox qo‘lida to‘rt jild Shaklida 1784-1791 yillarda nashr qilindi. Asar 1821 yil va 1828 yillarda ikki jild Shaklida tarixchi Genrix Luden (1780-1847) tomonidan berilgan so‘zboshi bilan chop etildi. Asarning ilmiy nashrlari ham qiziq. Tarixiy tanqidchilik nuqtai nazaridan Bernxard Zubxan tahriri ostida (1877-1913) nashr qilindi. Undan tashqari,

Berlinda 1965 yilda Heyns, SHtolbe Sharhi va tahriri ostida chiqadi. Asarning rus tilidagi tarjimasini L.Vinded va V.M.Jirmunskiylar tomonidan amalga oshirilgan.

Asarning mohiyatini muallifning quyidagi bir jumlasidan anglash mumkin: “Asarning nomi Shunday ekanmi, ya’ni insoniyat tarixi-tarix falsafasi; demak, men ta’kidlaymanki, o’quvchining birinchi va eng oliy vazifasi – “Insonparvar” inson bo’lishdir. Men insonman, men Yozdim - sen insonsan, sen o’qiysan. YOzuvchi adashishi mumkin, balki adashgandir, lekin senda bilim bor. YOzuvchiga ishonib, unga tayanib qolma, balki o’zing o’rgan” [4, 641]. To’rt jilddan iborat asar insonning ichki tuzilishi, ruhiy-ma’naviy olami, uning ijtimoiy taraqqiyoti haqidagi o’ta mazmundor fikrlarni o’z ichiga oladi. Uning fikricha, tarix falsafasi insoniyat tarixiga har jihatdan to’liq Yondashadi. Har qanday fanlar orasida insoniyat yaratilishi, olamning tuzilishi, undagi turli xil jarayonlarni tushintirib beruvchi din tarixini ham qamrab oluvchi tarix falsafasi muhimligini har doim saqlab qoladi. Asarda bunday falsafaning mohiyatini Yorqin ko’rish mumkin. Insonning er yuzidagi oliy mavjudot, o’zidan pastroq qilib yaratilgan nabotot va hayvonot olamiga mas’ul qilib yaratilgan mavjudot ekanligini qat’iyan ta’kidlovchi mazmun, bu asarga xosdir.

Inson taqdirini “YAratilish kitob”idan tashqarida hal qilish mumkin emas. Bittagina Yo’li, taqdir belgilab bergan Yo’ldan ehtiyotkorlik bilan, javobgarlikni his qilgan holda odimlashdir. Tajribadan holi bo’lgan har qanday fikrlash bilan inson kamdan-kam holatlarda ko’zlangan maqsadga etib boradi. Tabiatda esa bu go’yoki havoda hech qanday tirsaksiz suzish bilan barobardir. Tajriba har qanday holatda va har doim ijtimoiy hayotda insonning hamrohi sanaladi. Xudoning tabiatdagi Yo’li - bu abadiy g’oyadir. Ya’ni bu g’oya yerdagi jamiki o’zgarishlarning sababidir. Insonda esa ana Shu Yo’lni ko’ra olish qobiliyati mavjud. Shuningdek, Shu qobiliyatni yuzaga chiqara olgan insongina insoniyat tarixi sinoatini oson echa oladi.

Tabiat va inson haqida gapirar ekan, Gerder bularning har ikkalasini bir-biridan ajratmagan holda, Xudo - o’zi yaratgan narsalardir, deydi. U aytadiki: “Ba’zi Yozuvchilar xatosi bilan “tabiat” so’zi insonlar oldida o’zining asl

mohiyatini Yo‘qotib oddiy so‘zga aylanib qolgan. Shunday bo‘lsada, tabiat - bu qodirlik, farovonlik, donishmandlikka qaytadi, degan umiddaman” [4, 10], - deydi faylasuf.

Gerder asarda inson hukmronligi ostiga birikkan organik dunyo haqida Shunday fikrlarni bildiradi: “Men organik kuchlar (Qualitates Occultes - sirli kuchlar) haqida gapirar ekanman, ularni ko‘z o‘ngimda tiniq ko‘rmasam-da, ular atrofimda yaqqol faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun, men ularga boshqa izoh va nom topa olmadim” [4, 11]. Tarix falsafasini ibtidosi fazodan bo‘ladi. Sababi, bizning Yerimiz o‘z xohishiga ko‘ra yaratish - saqlash, tashkillanish qudratiga ega emas, buning hammasi osmonning xohish irodasiga bog‘liq. Yerga alohida sayyora sifatida emas, balki olamlar jamlanmasiga qo‘shilgan jism sifatida qarash lozim. Ana Shu jamlanma markazi Quyosh bo‘lib, ayni shu Quyosh yerdagi yorug‘lik, issiqlikning mavjudligin ta‘minlaydi. Tabiat ana shunday qonuniyatlar asosida kun kechiradi.

Gerderning inson va uning olami haqidagi fikrlari to‘la ijtimoiy va insonparvarlik mazmuniga egadir. Uning ta‘kidlashicha inson ikki asosda yashaydi: biri o‘z hayotini saqlash, ikkinchisi boshqalar hayoti uchun yashashdir. Inson boshqa insonlar bilan muloqotga kirishadi. Uning insonparvarligi o‘ziga bo‘lgan yaxshi munosabatidan boshlanadi. Agar inson aqlsiz va qo‘pol bo‘lsa uning o‘z kelajagi va avlodi uchun qayg‘urishi mumkin emas, agar mumkin bo‘lsa ham juda yuzakidir.

Oilada bolaga onaning muhabbati o‘tadi. Ota g‘amxo‘rligi esa oilada insonparvarlikka asoslangan munosabatlarni ta‘minlaydi. Ota-ona oilasida dastlabki insoniy jamiyat munosabatlari shakllanadi: qondoshlik aloqalari, ishonch, muhabbat insonlarni birlashtiradi. Mana shuning uchun insonning bolalik davri ruhi uzoq davom etishi lozim. Insonning yovvoyiligini sindirish va uni oilaviy muloqotga o‘rgatish kerak.

Tabiat nozik iplar ila bizni qarindoshlik rishtalari bilan bog‘laydi, - deydi Gerder [4, 428]. U bizni birlashishga chorlaydi, sababi insonlar bir-birlari haqida o‘ylamay qo‘ymasinlar va turli tomonga tarqab ketmasinlar. Shu tufayli ota

bolaning tarbiyasiga mas'ul qilib, ona bolani oziqlantirishga mas'ul qilib yaratilgan. Shu jarayonda jamiyatning tub xalqalari paydo bo'la boshlaydi. Mana nima uchun insonlar jamiyati kerak. Jamiyatdan holi ravishda hech kim o'sib ulg'aya olmaydi, hattoki mavjud bo'la olmaydi, deydi Gerder [4, 226]. O'z fikrlarini davom ettirib, insonning jamiyatda yashashi uchungina yaratilgani uqtiriladi. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, inson nisbatan cheklangan imkoniyatdadir. Shuning uchun oilada bir kishining o'zi butun oilaviy masalani yecha olmaydi.

Jamiyat insonlarni doimo to'g'ri yo'lga boshlaydi. Chunki jamiyatda har bir a'zolarining tajribasi birlashgan. Umuman, inson yaralishi mohiyatiga ko'ra muvozanat markazidadir. Aniqrog'i insonning har ikki ko'zi bir xil narsani ko'radi, har ikki qulog'i bir xil narsani eshitadi. Insoning bu holatdagi biologik tuzilishi, uning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida ham o'ziga xos ma'noga egadir. Ya'ni inson, deydi Gerder, o'ziga birovlar tomonidan qanaqa munosabat bildirilishini xohlasa boshqalarga ham xuddi shunday munosabatda bo'lsinlar. Bu adolatlilik qonuni hattoki Yer sharining uzoq bir nuqtasida yashovchi odamxo'rning ko'kragiga o'yib yozilgan. Odamxo'r birovni eydi va o'zi ham boshqalardan faqat bir narsani qachondir o'zini eb ketishini kutadi xolos.

Adolat qonuni do'stlarni yanada do'stlashtiradi, dushmanlarni esa do'stga aylantiradi. Insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar Gerdyerda katta qiziqish uyg'otadi. Men kimni suyub-quchsam, u ham meni suyub-quchadi. Kingadir hamdartlik bildirsam, kimdir menga ham befarq emas, deydi faylasuf [4, 110]. Biz yashab turgan hozirgi davrda ham insonlar o'rtasidagi o'zaro manfaatdorlikka asoslangan ijobiy mazmundagi munosabatlar vatanimiz ravnaqi uchun katta hissa qo'shadi.

Gerder ta'kidlashicha, insonparvarlik inson tabiatining maqsadidir. Unga erishish yo'llari va choralarini xudo insonning o'z qo'llariga topshirgan. Hamma narsa yoki har kimning maqsadi va unga erishish vositalari uning o'zida mujassam [4, 428]. Insonda undagi insoniylikdan ko'ra Yuqoriroq turuvchi mansab ham qadriyat ham yo'q. Inson qay darajaga ko'tarilishdan qat'iy nazar u yaratilgandir

[4,430]. Inson insonparvarlarcha munosabatga har doim ehtiyojmanddir. Insonparvarlik esa, aql, til, san'at orqali etkazib beriladi. Tabiat shunday qurilganki, unda erkak va ayol mo'jizasi yaratildi. Ular o'z hayotlarini yashaydilar, qariydilar va o'zidan keyingilar uchun nasihat beradi, ularni insoniylik ruhida tarbiyalaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Yer yuzining turli nuqtalarida turlicha imkoniyatlar o'ziga xos ob-havo sharoiti va shunga mos mehnat qilish imkoniyatlari yaratilgan. ovchi yoki baliqchi, dehqon yoki shaharlik, barcha-barchasi ozuqa manbai topish, uy-joy qurish kabi ehtiyojlar orqasidan kun kechiradi. Turli xil yaratilgan tartib va qonunlardan maqsad bitta - inson hayotini saqlash va uni har tomonlama farovonlashtirish. Aynan shuning uchun insonda xususiy mulkka egalik qilish, mehnat qilish, san'at bilan shug'ullanish, savdo-sotiq qilish kafolatlangan; jinoyat uchun jazo, erishilgan yutuqlar uchun mukofotlar tayinlangan. Bundan tashqari, jamoaviy va oilaviy hayot uchun turli xil urf-odat va an'analar paydo bo'lgan.

Demak, tarixda nimaiki yaratilgan bo'lsa, barchasi insonparvarlikni rag'batlantirish uchun bo'lgan. Inson maqsadning ro'yobini tabiiylik va tarixiylik kafolatlaydi. Xitoydan to Rimgacha bo'lgan hududda aholi xarakteriga mos tarzda boshqaruv usullari joriy etilgan. Inson qayerda va qanaqa sharoitda bo'lishdan qat'iy nazar u inson bo'lgani uchun ham farovon hayot uchun munosib. Farovonlik esa yaratib berilmaydi, balki insoniyatning o'zi uni o'ziga moslashtiradi. Inson insonparvarlikni turlicha talqin qiladi. Talqin etish jarayonida kimdir adashsa yoki qaysidir xalq xatolikka yo'l qo'ysa, albatta bundan o'zi birinchi bo'lib jafo chekadi. Tarixda yo'l qo'yilgan xato kelajakdagi jazoni tayinlaydi [4, 431]. Chunki qachonki xato bo'lganda ilohdan uni to'g'rilab berilmagan, balki insonning o'zi xatoni tuzatishni o'rganishi uchun uning o'ziga qo'yib berilgan.

Inson qanday yaratilgan bo'lsa, o'z mohiyatiga ko'ra ana shunday yashashi lozim va u hech qanday karomat kutishi kerak emas. Yaratgan insonga kerakli iste'dod, aql, imkoniyat muhayyo qilgan. Inson o'ziga kerakli hamma narsani

tabiatdan mustaqil va erkin tashabbuskorlik orqali oladi. Jamiyatda ayniqsa, hozirgi mustaqillik sharoitida erkin ishtirok va faol tashabbuskorlik har bir kishidan talab etiladi. Shundan inson omilining ahamiyati kelib chiqadi. Insoniyatni Xudo Yerdagi xalifa qilib yaratdi. U insonga aql hadya qildi. Inson aqlini ishlatgan holda yashashi va o'z hayotini saqlashi mumkin. Aksincha u aqlsiz faoliyati tufayli xato orqasidan xato qilishga majbur bo'ladi. Inson o'z xatosini va kamchiligini qancha tez anglab olsa, u shuncha oldiga ketadi, va unda insoniylikni tushunish malakasi oshib boradi. U o'zining shu rivojini oxirigacha olib brishi lozim, aks holda bu unga og'ir kulfatlarni olib keladiki, oqibatta o'zidan keyingilarga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Tarix har bir xalqning o'zigagina xosdir. Tabiat o'z qonuniyatlarini o'rnatish uchun makonni keng tanlagan. Har bir xalq o'zining yashash shart-sharoiti, vositalariga egadir. Xalqlar tarixining umumiy ekanligi Gerdyerda shubha uyg'otadi. Chunki xalqlarning o'ziga xosligi bu umumiylikka to'g'ri kelmaydi. Inson takdirining tabiiy qonuniga ko'ra: har bir xalq o'z oldiga ko'ygan maqsadiga erishish yo'lida turlicha vositalarni ko'llaydi. Shuningdek, alohida olingan shaxs ham. Bu tabiatning o'ziga xos qonuniyatidir. Jamiyatning qanchalik insonparvarligi ham alohida Shaxslarning ana Shunday individual xarakterlaridan kelib chiqadi. Chunki, har bir tuzumning davomiyligi u tashkil qilgan insonlarning o'ziga yuklatilgan ijtimoiy vazifalarni qay darajada bajarishi bilan asoslanadi va u tarixiy xotirada mukammal o'rin oladi.

Bir narsani yodda tutish kerak, deydi Gerder, hali ro'y berib ulgurmagan ishlar ko'p va ular kelajakda ro'y berishi ham ehtimoldan holi emas. Masalan, o'z davrida yunonlar ham, rumoliklar ham ko'p narsani qo'lga kiritdilar, yo'qotdilar ham. Vaholanki, ular tarixga zarvaraqlar bilan bitildi. Bu yutuq va yo'qotishlarning sababi eng avvalo davlatlararo siyosiy manfaatlardir. Shu ma'noda xalqlarning butun tarixi - raqobat va musobaqalar tufayli yuzaga keladi [4, 431]. Tarixda Yer sharining turli joylarida joylashgan turli xalqlar o'rtasidagi bu raqobat goho o'ta salbiy ijtimoiy natijalarga olib keladi. Bu ijtimoiy-siyosiy inqiroz nafaqat davlatlararo munosabatlarda, balki insonlar o'rtasidagi

munosabatlarda adolat muvozanatining buzilishi, umuminsoniy qadriyatlarni yo‘q bo‘lishiga, insoniy munosabatlar shaklini tubdan salbiy tomonga o‘zgarishiga shart-sharoitlar yaratadi. Insoniyat ana shunday yo‘qotishlardan keyin boshi berk ko‘chaga kirib qoladi. Bu yo‘qotishlarning o‘rnini to‘ldirishga bo‘lgan xatti-harakat tarixiy jarayon mazmuniga sezilarli tasir o‘tkazishi tabiiydir.

Hamma uchun aql, insoniylik, diniy e‘tiqod birdek xos. To‘g‘ri, davlat kechroq paydo bo‘ldi, keyinroq esa fan, sanat, lekin oila tabiatning eng katta va dastlabki ijod namunasi sanaladi. Mana shu dargoxda insonda insonparvarlik tamoyillariga asoslangan munosabatlar kayfiyati shakllantiriladi.

Til - har bir xalqda har xil, lekin u mohiyatiga ko‘ra hamma uchun birdek ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni inson tili muloqot vositasi bo‘lib bu vosita orqali inson o‘zining mukammal muomala madaniyatini shakllantiradi. Insonparvarlikning o‘ziga xos jihatlaridan biri esa oliy darajadagi namunali muomala madaniyatidir.

Shuningdek, din u qaysi ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar, Yer sharining har qaysi nuqtasida yashovchi, taraqqiyoti jihatidan turli darajadagi xalqlarda ham o‘z unsurlariga ega. Biroq ana shunday rang-baranglikdagi xalqlarning diniy etiqodi qanday va nima uchun paydo bo‘lgan? Nahotki ongi juda past darajada rivojlangan insonda (taraqqiyot nuqtai nazaridan olib qaralyapti) ham dinga ishonch va unga e‘tiqod bo‘lsa? Ularni bunga nima o‘rgatadi yoki bular bunday e‘tiqodni qanday o‘zlashtiradilar?

Ularga hech kim, hech nima o‘rgatmagan, balki ular o‘z ota bobolarining urf-analarini davom ettirganlar xolos. Demak, an‘analar tilning, madaniyat rivojining, va nihoyat dinning — asosidir [4, 252].

Diniy ananalarning davom ettirish vositalari sifatida insonlar til va tarbiyadan foydalanganlar. Dinning ta‘sir doirasini kengaytirish, unga e‘tiqod qiluvchilarning safini kengaytirishda ayni Shu vositalardan foydalandilar. Qadimgi dunyo odamlari ham diniy e‘tiqodlarini boshqalar uchun tushinarsiz bo‘lsada, imo ishora va o‘ziga xos muloqot vositasi orqali ifoda etganlar. Dinni insonparvarlikni targ‘ib etuvchi kuch deb biladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, deydi

Gerder, din xalqlarga fan va madaniyatni olib keldi, malumki madaniyat va fan dastlab dinning Shakllari bo'lgan [4, 253].

Shundan kelib chiqib, hozirgacha bazi xalqlarning bilimu madaniyatlari, ularning diniy aloqalari bilan uzviy bog'liq. Odatda "Tafakkur va til" deb gapirishadi. Lekin inson tilga ega bo'lmay turib tafakkur qila olmaydi. Tafakkur va tilning birligiga inson faqat bir yo'l bilan erishadi, qachonki ko'plikni umumiy birlikka ega ekanligini, ko'rinmaydigan narsalarni tasavvur qilish mumkinligini, sabab va oqibat o'zaro aloqador ekanligini anglay olgan holda erishadi.

Insonning dastlabki bilimlar hosil qilishi va ularni rivojlantirishi — haqiqiy ilohiy shaharda (Yer sayyorasida) ro'y beradi. Undagi hamma odamlar har xil tabaqadagi sinflarga ajratildi. Bu yyerda o'zining ichki imkoniyatlarini birlashtira olgan va boshqalarga nisbatan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan munosabatlarni shakllantira olgan inson eng baxtlidir. Biroq ana shu baxtni boshqa insonlar uchun ham ravo ko'rishlari kerak. Bu insonparvarlikning eng oliy ko'rinishidir. Nima uchun insonlar boshqalar hayotini ijobiy tomonga o'zgartirishda ishtirok etishlari kerak? Chunki inson tuzilishining butun mexanizmi uning xarakteri, axloqi va hokazolar tashqaridan bo'lgan tasirga ham bog'liq. Chaqaloqning miyasi xali to'la shakllanmagan, hattoki, muqim holatda ham emaski, uning miyasi yillar davomida mukammallashib boradi. Bu mukammallashish tashqi taassurotlar natijasi bo'lib, u yillar davomida yig'ilib boradi.

Inson tanasi shunday mukammal tuzilganki, u boshqalarni tushuna oladi, ularning fikrlarini anglay oladi, ko'ra olish va eshitish qobiliyatiga ega. Ayni shu qobiliyatlar ro'yobi asosida insonlar orasida o'zaro munosabatlar shakllana boradi. Demak, inson shunday qurilmaki, birining ishlashi boshqasining ishlashini taqozo qiladi. Tafakkur - insonning taassurot va tajribalarini birlashtiradi va ularni tarbiya qiladi [4, 224].

Insoniyat tarixining taraqqiyot prinsipi o'ziga xos. Bu prinsipsiz tarixning o'zi ham bo'lmas edi. Agar inson o'ziga kerakli bo'lgan hamma narsani o'z ichidan olganda edi, hamda barcha erishgan narsalarni tashqi olamdan holi

ravishda rivojlantira olganda edi, u holda faqatgina “alohida inson tarixi” bo‘lar edi. “Insonlar tarixi” yoki “umumbaShariy insoniyat tarixi” bo‘lmas edi.

Demak, xulosa qilsak, tarixning o‘zi ham insonlarning har tomonlama gumanistik xaraktyerdagi munosabatlarning amaliyoti natijasida yuzaga keladi. Biz hattoki, ba’zi bir insoniy imkoniyatlardan maxrum ravishda tug‘ilamiz, faqatgina yashash davomida turli xil hayotiy mashg‘ulotlar oqibatida insonga aylanamiz [4,229]. Insonlarning o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan qobiliyati va harakati bu jarayonni tezlatadi. Lekin undan ham kuchliroq omil borki, u insondagi o‘zgarish jarayonini yanada kuchliroq tezlashtiradi. Bu - tarbiya hisoblanadi. Inson tarbiyasi zanjirlari uning tug‘ilishidan to o‘limigacha bo‘lgan davrni bog‘lab turadi. Inson uchun ana shu zanjir xalqalarining hech biri tushib qolmasligi juda muhim.

Gerdyerda rivojlanish g‘oyasining shakllanishidagi keyingi bosqich uning inson ruhiy faoliyati va tafakkuriga bog‘liqdir. Shunday qilib, tilning uzluksiz rivoji inson tabiatining o‘zidan kelib chiqadi. Insonning zaifligi shuning uchun ham uning kuchining sababiga aylanadiki, ularni boshqa kishilar bilan birlashishga majbur etadi.

O‘z holicha yashaydigan inson mavjud emas. U hamisha o‘z urug‘i tarkibiga butun holatda kiritilgan. Inson jamiyatsiz o‘z ildizi va o‘zagidan qirqilgan gul kabi so‘nadi. Rivojlanishda davom etayotgan jamiyat tilni ham takomillashtirib boradi. Tilning taraqqiyoti jamiyat rivoji kabi cheksizdir. Har bir donishmand, olimu-mutafakkir tilni boyitib, uni rivojlantiradi.

Madaniy an‘ana o‘z ko‘rinishlarini ma‘lum ma‘noda o‘zgartirib, Yangidan-Yangi shakllarni qabul qilib, avloddan avlodga o‘tib turadi.

Gerdyerda rivojlanish g‘oyasining shakllanishidagi keyingi bosqich uning inson ruhiy faoliyati va tafakkuriga bog‘liqdir. Bu masalaga Gerder Berlin fanlar Akademiyasi e‘lon qilgan tanlov munosbati bilan murojaat qiladi. Ammo bu safar 1774 yilda yozilgan “Insoniy ruhning his tuyg‘usi va bilishi haqida” asari mukofot olmadi. Bu asar qayta ishlangan holda 1778 yilda nashr etildi. Gerderning diqqat markazida aqlning kelib chiqishi muammosi turar edi. Uning

qayd etishicha, “mexanik qarashlar” hukmi ostida bo‘lgan kishilar va kimki, ruhni “tuproq va loydan” yasashga urinsalar, ushbu muammo oldida chorasiz qoladi. Tabiatda bir-biridan ajratilgan hech narsa yo‘q, barcha narsalar o‘zaro bir-biriga o‘tish va quyilish holatidadir. Gerderning ushbu fikrlaridan undan keyin yaratilgan tabiiy fanlarning, xususan fizikadagi energiyaning bir-biriga o‘tishi va Yangilanishi qonuniyatlarini ochishda foydalanilgan bo‘lsa ajab emas. Shuning uchun, ongning tug‘ilishini modddadan tashqarida emas, balki uning ichidan qidirish kerak.

Olim tafakkurni his-tuyg‘udan keltirib chiqaradi. His-tuyg‘ular organizmda mavjud bo‘lgan asablar bilan bog‘liq. His-tuyg‘u muayyan darajadagi aniqlikka erishganda tafakkurga aylanadi. Demak, ong moddiy dunyoda tirik mavjudot rivoji natijasida kelib chiqqan narsadir. Gerder oldida bir savol ko‘ndalang turar edi: ruh moddiymi yoki g‘ayrimoddiy? Bunga javob berishdan faylasuf ochiqchasiga bosh tortadi: “Men hali nima narsa moddi-yu, qaysi narsa nomoddiylikini bilmayman, lekin men shunga ishonamanki, ular o‘rtasida o‘tib bo‘lmaydigan temir to‘siq yo‘q”.

Demak, til, tafakkur va she‘riyatning tabiiy ravishda kelib chiqqanligi haqidagi fikr bo‘lgan rivojlanish g‘oyasi, asta-sekin Gerder tomonidan tabiat va jamiyatga nisbatan ham tadbiiq qilina boshlandi. Uning fikricha, tabiat quyi darajadan oliy darajaga qarab to‘xtovsiz rivojlanayotgan holatdir. Boshqalarning aralashuvisiz, faqat tabiiy kuchlar tufayli tabiatning rivojlanishi borgan sari murakkab tartibdagi narsalarning paydo bo‘lishi va shakllanishiga olib keladi. Hayot suvdan bo‘lgan. Birinchi hayvon organizmi paydo bo‘lmasidan oldin ko‘p sonli o‘simlik paydo bo‘lib, zavol topdi. Bu jarayonda hayvonot olamining turli shakllari birin-ketin paydo bo‘la boshladi. Nihoyat, sayyoramiz rivojining cho‘qqisi sifatida inson vujudga keldi. Umuman, insonni unga tegishli bo‘lgan hamma jihatlari orqali uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan, Gerderning bu ta‘limoti, ya‘ni til, aql, tafakkur xususiyatlarini inson kamolotining darajasini ta‘minlovchi ahamiyatga egadir. Shuning bilan Gerder ta‘limotning gumanistik

xarakteri ijtimoiy hayot, taraqqiyotning tabiiyligi, insonparvarlik g'oyalarining targ'iboti bilan ifodalanadi.

Gotxold Efraim Lessing (1729—1781 yillar) Saksoniyaning Kamens shaharchasida ruhoniy oilasida tug'ildi. Dastlab u Leypsig universitetining ilohiyot fakultetida, keyin meditsina fakultetida o'qiydi. Berlinda u o'zining mashhur «Adabiy xatlar»ini nashr qildiradi. Bu unga Germaniyaning birinchi tanqidchisi sifatida katta Shuhrat keltiradi. Juda katta ahamiyatga ega bo'lgan “17 xat” Shekspirni himoya qilish bilan tugallanadi: “Shekspir Kornelga nisbatan ham tragik shoirdir. Sofoklning “Edipi”an keyin, “Otello”, “Gamlet”, “Qirol Lir”chalik bironta asar ham bizning his-tuyg'ularimiz ustidan bunchalik hukmronlik qilmagan” [1, 77], — deb yozadi Lessing.

Ingliz shoiri A.Popga bag'ishlangan “Pop — metafizik” deb nomlangan risolada she'riyat va falsafa o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. She'riyatni metafizik haqiqatlar bilan taqqoslash mumkinmi? Uningcha, faylasuf aniq va izchil iboralar bilan o'z fikrini ifodalaydi. Shoir esa so'zlar bilan o'ynaydi. U hech mahal “jiddiy, izchil haqiqatlarni ifodalashga intilmaydi” [1, 78].

Shuning uchun falsafa va san'at o'rtasiga chegara qo'yish juda muhim. Lessing davrida san'at ma'nosini anglatadigan “go'zal fan” iborasi mavjud edi. U davrda bu ikki ijodiy ruhiy faoliyat o'rtasidagi tafovut aniq tasavvur qilinmasdi. Lessing o'zini “yarim yo'lda to'xtab qolgan faylasuf”, deb tasavvur qiladi. Xuddi shu yerda u “adabiyotning yarim Yo'lida to'xtab qolgan” - Moisey Mendelson (1729—1786 yillar) bilan uchrashadi. Buning mahsuli o'laroq birgalikda “Pop — metafizik” risolasi yoziladi.

Lessing talantli jurnalist, tanqidchi, shoir, masalchi, dramaturg sifatida mashhur bo'lgan. 1753—1755 yillarda uning olti jildli to'liq to'plamlari bosilib chiqadi. So'nggi jildga o'sha davr adabiyotining so'nggi yutug'i “Sara Sampson xonim” pesasi kirgan. Lessing o'z pesasini “Byurger fojiasi” deb ataydi. Uningcha, “byurgerlik” davri keltirgan Yangilik — bu hayotga muhabbatdir. Byurgerlik Germaniyada feodalizmning tabaqalanish tartibini tugatib, iqtisodiy va ma'naviy hayotda burjua munosabatlarini o'rnatadi. Byurger — shaharlik ma'nosini

anglatib, tarkibiy jihatdan “uchinchi tabaqa” vakilidir. Shu bilan birga byurger— tartib-qoidalarga rioya qilish timsoli bo‘lgan fuqarodir. Va nihoyat, byurger — mulkchi, burjuadir.

Lessingning “Minne fon Barnxelm” asarida “Sara Sampson”ga qaraganda qonun-qoidalar hukmronligida yashovchi ozod Shaxsning byurgerlik ideal hayot tarzi Yorqinroq ifodalangan.

1766 yilda Lessing plastik san’atlar va She’riyat orasidagi farq haqidagi “Laokoon” risolasini nashr qildiradi. San’atning bu turlari o‘rtasidagi o‘xshashlik haqidagi antik davr tasavvurlari XVIII asrda shubha ostiga olingan edi. “Laokoon” risolasi munozarali. Uning muallifi Vinkelmanning “Tasviriy san’at va haykaltaroshlikda yunon asarlariga ergashish munosabati haqida fikrlar” asaridagi ta’limotiga qarshi chiqadi. Lessing “birinchi sabablarni” aniqlashga intiladi. Uningcha, san’at makon va zamon mavjud bo‘lgan voqelikka taqlid qiladi. Shundan san’atning ikki turi kelib chiqadi. Makon jismlar bilan to‘lgan. Jismlar o‘zlarining ko‘rinib turgan xususiyatlari bilan tasviriy san’atning predmetlaridir. Zamon voqealarning davomiyligidir. Bular she’riyatning predmetlaridir. Lessing ta’kidlaydiki, ular o‘rtasidagi tafovut nisbiydir. Chunonchi, tasviriy san’at ham voqealarni tasvirlashi mumkin va aksincha, she’riyat jismlarni voqealar orqali tasvirlashi mumkin.

Shunday qilib, san’atkor tasarrufida (tasviriy san’atchi yoki haykaltarosh) zamon emas, uning bir kichik bo‘lagi bo‘ladi, uning eng mahsuldorini tanlab olishi kerak. “Hayol qobiliyatining erkin o‘yinini uyg‘otadigan narsalar mahsulddir. Qancha ko‘p silliqilasak, shuncha ko‘p fikrlab boramiz. Fikr qancha kuchli ishlasa, ko‘zimiz Shunchalik ko‘p ko‘radi. Lessingcha tuyg‘ularimiz eng taranglashgan holatda ularni tasvir etish bunday afzallikka olib kelmaydi. Bunday tasvirlash asosida hech narsa yo‘q. Ko‘zga bunday so‘nggi nuqtani ko‘rsatish hayol qanotlarini bog‘lab tashlashdir” [1, 79], — deydi. Shuning uchun Laokoon faqat oh-voh chekadi. Hayolda uni qichqirayotgandek tasavvur qilish mumkin. Agar u qichqirganda edi, hayol bir pog‘ona ham yuqori ko‘tarila olmas edi.

Bunday nozik kuzatish natijasida qilingan xulosa faqat haykaltaroshlikning emas, umuman san'atning muhim xususiyatidir. Har bir san'atkor shu jumladan yozuvchi ham "mahsuldor on"ni qidiradi. Ba'zan imo-ishora to'liq tavsifga nisbatan kuchliroq ta'sir etadi. Har bir san'atkor shu jumladan yozuvchi ham hayotni qayta aks ettiradi. Lekin hamma ikir-chikirlari bilan to'liq holda emas, balki tomoshabinning yoki o'quvchining hayoliga ham o'rin qoldirib, umumlashgan holda aks ettiradi. Estetik his-tuyg'u borliqni "anglash" bilan ham, san'atkor tomonidan yaratilgan obrazni "o'qish bilan ham vujudga keladi. "Laokoon"ni o'qib shunday xulosa qilish mumkin. Bundan Kantning "tanqidiy" falsafasida bayon qilingan hayolan tasavvur qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega degan xulosa kelib chiqadi.

Lessing Aristotel tomonidan o'rtaga tashlangan san'at — tabiatga taqlid qilishdir, degan g'oyani tuzatishlar bilan qabul qiladi. Lessing dunyoqarashidagi bunday tuzatishlar umumiy va yakkaning birligi masalasida ham mavjuddir. San'atda biz yakkaning umumiylik darajasiga ko'tarilishini ko'rishimiz o'z-o'zidan ma'lumdir. Fransuz dramaturgi Kornel bu qoidani buzadi. Lessing esa Kornel tarafida turib, uning g'oyalari Arastu g'oyalari qarshi ekanligini ta'kidlaydi. Uningcha, fransuzlar "o'zlari tomonidan tavsiflanayotgan shaxslarni timsoliy obrazlarga aylantirmaguncha ifodalarni ortiqcha yuklaganlar, bo'yoqlarni haddan tashqari quyushtirganlar" [1,79]. Faqat Kornel emas, Didro ham komediyada tragediyadagidek xususiylashtirish darajasi bo'lishi mumkin emas, deb ko'rsatadi. Hayotda haqiqatan ham juda ko'p komik xarakterlarni topish qiyin. Demak, komediyada yozuvchi xarakterlarni shaxsdan emas, guruhlardan, tabaqalardan oladi. Bunda Didro "ideal xarakter" haqida gapiradi. Lessing Didro bilan bahslashmaydi, u Yoritgan masalalarni tushunishga harakat qiladi. Nima uchun Didro Arastuga butunlay zid bormagani holda unga qarshi chiqadi? Oqibatda Lessing buning yechimini topadi. U badiiy umumlashtirishning ikki mumkin bo'lgan varianti, "umumiy xarakter" iborasining ikki ma'nosi haqida gapiradi. "Birinchi ma'nosida umumiy xarakter deb juda ko'p yoki hamma individlarda uchraydigan xususiyatlarning birga to'planishiga aytiladi. Qisqacha aytganda, bu

ortiqcha yuklangan xarakter shaxs xarakteriga qaraganda ko‘proq shaxslashgan xarakter. Ikkinchi ma’nosida umumiy xarakter juda ko‘p yoki hamma individlarga xos bo‘lgan o‘rtacha, teng proporsiyadagi xususiyatlarga aytiladi. Qisqacha aytganda bu oddiy xarakter bo‘lib, u xarakterning oddiyligidan emas, balki uning darajasi, o‘lchovi bilan bog‘liq” [1, 80].

“Gamburg dramaturgiyasi” risolasining mag‘zi, muallif iborasi bilan aytganda, tafakkurning hayot tuprog‘i (perment) ana shundadir. Lessingning ta’kidlashicha, umumiy xarakterning faqat ikkinchi turi Arastuning qarashlariga mos keladi. “Yuklangan xarakter” va “Shaxslashgan g‘oyalar” birinchi turi esa, Arastu nazarda tutgan xarakterga nisbatan ancha g‘ayri oddiy. Ikki umumlashgan badiiy obraz haqidagi masala keyingi davr nemis estetikasining eng muhim masalalaridan biridir. Shu munosabat bilan Lessingning “Gamburg dramaturgiyasi”dagi bir monologini keltirish joiz. U shunday deb yozadi: “...Faqat yozuvchilarning o‘zigina o‘zlari haqidagi tanqidiy hukmlarni eshitishni yomon ko‘rmaydilar. Bizda, xudoga shukur, tanqidchilar maktabi bor. Ularning ichidagi eng afzali har qanday tanqidga ishonchni yo‘qotishga xizmat qildi. Ular “Geniy! Geniy! Geniy harakatday qonun-qoidadan afzal! — deb qichqiradilar” [1, 80]. Bu yyerda so‘z “Bo‘ron va iskanja” deb nomlangan harakat haqida ketayapti. Bu harakat feodal tartiblarning inqirozi, iqtisod, ijtimoiy munosabatlar, davlat tuzumi va turli g‘oyaviy sohalardagi tanazzul tufayli vujudga kelgan birinchi umum nemis ijtimoiy harakati edi. Bu harakat faqat g‘oyaviy soha bilan cheklangan edi. “Bo‘ron” faqat adabiyotda bo‘ralardi, “iskanja” bosma nashrlar chegarasidan tashqariga chiqmagandi. Bu narsa individualizmning tug‘yonga kelishi, shaxs muammolariga o‘ta qiziqish, ayrim odamlarning ichki hayotiga e’tibor, ilk ma’rifatparvarchilik targ‘ib qilgan ratsionalizm tamoyillariga ishonchsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan harakat edi. Lessing bu “adabiy inqilob”ning dastlabki yalovbardori va tanqidchisi edi.

Fridrix Shiller (1759—1805 yillar) XVIII asr nemis ma’rifatchiligining yirik vakillaridan biri. U haqida Shiller Kantni o‘qimasdan avval kantchi bo‘lib olgan, deydi. Buning isboti sifatida Shillerning quyidagi fikrini keltirish mumkin.

“Ko‘pchilik faylasuflar ta’kidlaydilarki, tana jonning zindonidir. U jonning komillikka parvozigacha xalaqit beradi. Boshqalari, aksincha, ta’kidlaydilarki, tana holatining yaxshilanishi ma’naviy yuksalishga olib keladi. Menimcha, bu yyerda har ikki tomon ham bab-barobar bir tomonlama fikr yuritadilar” [1, 81].

Shiller “haqiqatning o‘rta yo‘liga chiqish” uchun bu ikki oqim o‘rtasida muvozanat o‘rnatmoqchi bo‘ladi. Shillerning bu fikrlari Kantning “Sof aqlning tanqidi” asari yozilishidan bir yil ilgari bayon etilgandi. Shiller “haqiqatning o‘rta yo‘li”ni topishda Kantga borib taqaluvchi ta’limot izidan boradi. Shiller Kant asarlari bilan 80-yillarning o‘rtalarida tanishadi. Shundan keyin shoir faylasufga, Kantning muhlisi va uni afkor ommaga tashviq qiluvchiga aylanadi.

Shiller o‘z falsafiy tizimini yaratmagan. Lekin falsafa tarixida o‘z o‘rniga ega. Xususan, san’at falsafasi haqida gap ketganda Kant nomidan keyin Shiller nomi tilga olinadi. Shillerning “Insonning estetik tarbiyasi haqida” asari, muallifning o‘zi e’tirof etishicha, “Kant tamoyillari asosida yozilgan”. Kant uni o‘qib chiqib “ajoyib asar” deb baholaydi. Bu asar haqiqatan ham estetika tarixidagi eng qimmatli asarlardan biridir. Uning boshlang‘ich g‘oyasi shunday: “...faqat go‘zallik yordamida erkinlikka erishish mumkin” [1, 81].

Bunda Shiller nimani ko‘zda tutadi? Bunda shoir Kantning madaniyatning qarama-qarshi tarzda rivojlanish haqidagi ta’limotiga qo‘shiladi. U qat’iyat bilan ta’kidlaydiki, insoniyat kamolotga qarab borgan holda sivilizatsiya zanjirlari bizni tobora dahshatliroq siqadi va faqat “Yomonlik muvozanati” bunga ba’zi chegarani qo‘yadi. Taraqqiyot quroli kelishtirib bo‘lmaydigan ziddiyatlar, odamlarning, ularning mehnati va qobiliyatlarining bo‘linishi, chegaralash insonni ustaga aylantiradi. Lekin shu bilan bir vaqtda “kasbiy telbalik” - mutanosiblikni yo‘qotishga olib keladi. Uni o‘ziga qaytarish esa, san’atning vazifasi. San’atkor — asr farzandi. Lekin u asr tantig‘i bo‘lib qolsa, uning holiga voy. Odamlar tarbiyaga muhtoj. San’atkor uni go‘zallik yordamida tarbiyalashi mumkin va tarbiyalashi zarur.

Go‘zallik insonning mo‘tabar tabiatiga mos keladi. Inson kabi go‘zallik ham ikki tomonlama xarakterga ega. Shiller meditsina bilan shug‘ullangan davridayoq

inson mutlaq moddiy ham emas, mutlaq ruhiy ham emas, degan xulosaga keladi. Shoir va faylasuf sifatida bu fikrni qat'iyat bilan himoya qiladi. Shiller insonga xos bo'lgan ikki qarama-qarshi intilish haqida gapiradi. Birinchisi fizik tabiatiga xos bo'lgan intilish ikkinchisi — ruhiyat, ya'ni axloqiy va aqliy sa'y-harakat. Lekin shu bilan birga alohida o'rta kayfiyat ham mavjudki, unda ruh jismoniy holatni ham, axloqiy holatni ham his qilmaydi. Lekin har ikki sohada ham faoliyat ko'rsatadi. Bu holatni Shiller estetik holat deb ataydi.

Bundan go'zallikning ikki tomonlama xarakteri kelib chiqadi. U ham moddiy, ham ruhiy, ham ob'ektiv, ham sub'ektivdir. Bu ham hayotning o'zi, ham uning timsoli. Go'zallikning mohiyati o'yindir. Bu yyerda ham go'zallikning ikkilanganligi namoyon bo'ladi. Bu masalada Shiller Kant g'oyasini o'zlashtiradi. O'yin deganda insonning ijodkorlik tabiati namoyon bo'ladigan, madaniyat yaratadigan erkin faoliyatni nazarda tutadi. Qadimgi Yunonistondagi Olimpiya o'yinlari buning misolidir. Buning qarama-qarshisi esa — Rimdagi gladiatorlar urushidir. “Inson tom ma'nodagi inson holatidagina o'ynay oladi. Mana Shu holda o'ynaganda haqiqiy inson bo'ladi”. Estetik tarbiya haqida gapirganda Shiller insonning san'atni tushunish qobiliyatining shakllanishinigina tushunmaydi. Yaxshi did — shaxs fazilatining faqat bir tomoni. Go'zallik va axloqiylik o'rtasidagi aloqa bilvositadir. Bevosita taqlid intellekt va estetik his-tuyg'udan tashqarida, estetik tarbiya har tomonlama rivojlangan ijod qilishga qodir Shaxsni tarbiyalashni taqozo qiladi. Go'zallik faoliyat uchun sharoit yaratadi. Shiller go'zallikni “bizning ikkinchi ijodkorimiz” deb ataydi. Uning odob va bilim bilan bevosita aloqasini inkor qiladi. U shunday deb yozadi: “Men shuni yorqin isbot qildimki, go'zallik tafakkurga ham, irodaga ham hech narsa bermaydi. Go'zallik ong va uning qarorlari ishiga aralashmaydi. Go'zallik faqat insonni unga ham, bunga ham qobiliyatli qiladi. Lekin bundan foydalanishni hal qilmaydi” [1, 82]. Nasihat qiluvchi romanni o'qib jinoyatchi tuzalib qolmaydi. Ilmiy masalalarni hal qilishni badiiy asardan qidirish kerak emas. Ular o'rtasida bevosita bog'lanish yo'q. Lekin Shiller ular o'rtasida bilvosita aloqaning mavjudligini ham ko'rsatib beradi.

Shiller ayrim odam va butun inson zotining rivojida uch bosqichni ko'rsatib o'tadi. Fizik holatda odam o'zining moddiy tabiatiga bo'ysunadi, estetik holatda bunday kuchdan ozod bo'ladi, axloqiy holatda uni egallab, o'ziga bo'ysundiradi. Estetik holat — bu o'tish pog'onasi bo'lib, faqat go'zallik erkinlikni yaratadi. Go'zalliqda erkinlik mutanosib holda zaruriyatga mos keladi. U shunday deb Yozadi: "...Ruh estetik kayfiyatda erkin, hatto har qanday majbur qilishdan oliy darajada erkin. Lekin u qonunlarga nisbatan erkin emas. Estetik erkinlik tafakkur jarayonidagi mantiqiy zaruriyatdan farqlanadi. Shuningdek, iroda etishdagi axloqiy zaruriyatdan ham shu bilan farq qiladiki, bu holatda harakat qilayotgan qonunlar anglab olinmaydilar, majbur qilayotgandek tuyulmaydilar, chunonchi ular qarama-qarshilikni keltirib chiqarmaydilar" [1, 83]. Shiller voqe'likning go'zallik mavjud bo'lgan qatlamlarini ko'rsatib "estetik ko'rinish" tushunchasini ishlab chiqadi. Uningcha mantiqiy ko'rinishdan estetik ko'rinishlar tubdan farq qiladilar.

- Birinchisi - yolg'on, aldov.

- Ikkinchisi, ya'ni estetik ko'rinish haqiqatga teng o'yin, inson tomonidan qabul qilingan shartlanganlik. Shiller tenglik idealini amalga oshirishga qaratilgan "go'zal ko'rinish" hukmronligi haqida gapiradi. Uningcha, agar did hukmronlik qilsa, hech qanday imtiyoz, hech qanday yakka hokimlikka o'rin yo'q". "Go'zal ko'rinish" hokimligi aql hukm suradigan va materiya yo'qolgan sferagacha ko'tariladi.

Shillerning estetik utopiyasi tarixiylik ruhi bilan sug'orilgan. Uningcha, insoniyat tarix jarayonida, moddiy tabiatni bo'ysundirish jarayonida, faoliyat jarayonida axloqiy erkinlikka erishadi. Real tarixga bo'lgan hayotiy qiziqish Shillerni Kantdan o'zib ketishga olib keldi. Gegelning ta'kidlashicha, Shillerning buyuk xizmati shundaki, u sub'ektivizmni va tafakkurdagi mavhumlikni engib o'tdi, undan tashqariga chiqishga jur'at etdi, haqiqatni mujassamlashtirgan narsalarning fikriy birligini badiiy jihatdan amalga oshirdi.

Shiller dunyoqarashi faqat estetika tarixida emas, tarix falsafasida ham diqqatga sazovordir. 1789 yilda Shiller Yena universitetining umumiy tarix fani

bo'yicha professori unvoniga erishadi. Uning "Jahon tarixini o'rganish nimadan iborat va uni o'rganishning maqsadi nimadan iborat?" mavzusidagi kirish ma'ruzasi o'tmishga yondashishning umumiy tamoyillariga bag'ishlangan. Shiller taraqqiyot g'oyasini himoya qildi. Hozirgi davrdagi "yovvoyi" xalqlar insoniyat tarixi nimadan boshlanganligi haqida taxminiy tasavvur beradi. Bizning madaniyatimiz turli davrlar ma'lumotini yig'adi. Inson zoti vujudga kelganidan boshlab to hozirgi davrgacha taraqqiyotning yagona zanjiri mavjud. Faqat tarix ne'matlarni to'g'ri qadrlashni o'rganishga qodir. Biz bu ne'matlarga shuning uchun shukronalik qilmaymizki, biz ularga o'rganib qolganmiz, ularni ko'ramiz, qo'lga kiritamiz. Aslida esa, bu ne'matlar eng yaxshi va olijanob odamlarning qon to'lovi evaziga kiritilgan. Ularni egallash uchun ko'p avlodlarning og'ir mehnati zarur bo'lgan, — deb ta'kidlaydi.

Tarix hamma axloqiy dunyoni qamrab oladi. U kishilar va xalqlar ustidan hukm chiqaradi. Shiller hammadan ko'proq ishonch bilan o'tmishni o'rganishning axloqiy me'yorlarini, har bir insonning butun insoniyat oldidagi mas'uliyati g'oyasini ishlab chiqdi. Shiller o'z tinglovchilarini tarixni o'rganishga chaqirib, shunday deydi: "Tarixni o'rganish aqlimizni nurlantiradi, qalbimizni olijanob fidoiylik bilan alangalantiradi. U ruhimizni axloqiy masalalarga pastkashlik va bachkanalik bilan yondashishdan saqlaydi" [1, 84].

Shillerning fikricha, tarix insoniyatni belgilab berilgan reja bo'yicha olg'a etaklaydi. Odamlarga ular zo'ravonlik hukmronligida yashayotgandek tuyuladi, lekin tarix yuz berayotgan chalkashliklarga osoyishta qaraydi. U jilovsiz erkinlikni zaruriyat sirtmog'ida ushlab turayotgan damlarni ko'radi. Shiller aytadiki, papa Grigoriyga yoki vijdon azobidan qiynalgan Kromvelga yashirin bo'lgan narsani tarix mamnunlik bilan insoniyatga ochib beradi. Shiller ayrim yakka inson faoliyatining maqsadlari bilan uning ijtimoiy natijalari o'rtasidagi bu qarama-qarshilikni ma'lum tarixiy hodisalarni tahlil qilish bilan yoritib berdi. U yoki bu hodisani tavsiflar ekan, Shiller avvalo ularning sabablarini, diniy va siyosiy shiorlar ortida nima yotganligini ko'rsatib berishga e'tibor beradi. Shillerning asosiy tarixiy asarlari — "Niderlandiyaning ispan hukmronligidan ajralib chiqish

tarixi” (1798) va “30 yillik urush tarixi” (1793) hisoblanadi. Bu asarlar haqiqiy dramatism, falsafiy mulohazalar, axloqiy zavq-shavq bilan yozilgan ajoyib asarlaridir.

Shunday qilib, tarix nazariya bag‘riga kirib bordi. U nafaqat o‘tmish xotirasi, zamonasining hayotiy muammosi, jamiyatning hozirgi va kelajakdagi tizimi masalasi sifatida, balki siyosiy faoliyat sifatida ham nazariyaga kirib bordi. Nemis falsafasi bag‘ridan fransuz inqilobi o‘rin oldi.

Iogan Volfgang Gyote (1749-1832 yillar) nemis shoiri va mutafakkiri, imperator maslahatchisi oilasida tug‘ilgan. Leypsigda, so‘ngra Strasburgda huquq va tabiiyot fanlarini o‘rgandi. Mavjud feodal tartiblar va knyazliklarga norozilik bilan chiqqan Shturmerlik harakatida ishtirok etdi, uning nazariyotchisi I.G.Gerder bilan do‘stlashdi.

Gyote ijodi 1770 yillarda boshlandi. “Gets fon Berlixingen”, “Prometey”, “Muhammad” kabi dramalari va qator she‘riy asarlari bilan ommaga tanildi. “Yosh Verterning iztiroblari” romani (1774)da ishq sarguzashtlari ijtimoiy voqealar bilan bog‘lanib ketadi. 1776 yilda Gyote gersog Karl Avgustning vaziri qilib tayinlanadi. Gyote mavqeidan foydalanib, qator demokratik islohotlar o‘tkazish niyatida bo‘ldi, ammo o‘z ideallarini amalga oshmasligini anglab, 1786-1788 yillarda Italiyaga sayohat qiladi. “Ifigeniya Tavrida” (1786), “Egmont” (1788), “Torkvato Tasso” (1790) dramalarida avvalgi asarlaridagi isyonkorlik ruhi o‘rniga isloh bilan cheklanish, mavjud tuzum bilan kelishish g‘oyalarini ilgari surdi. Gyote dunyoqarashidagi ikkilanish kayfiyatlari fransuz burjua-demokratik revolyusiyasi (1789)ga munosabatida ham ko‘rinadi: bir tomondan, fransuz xalqining ozodlik, teng huquq uchun kurashini olqishlasa, ikkinchi tomondan, shunday voqealarning o‘z vatanida bo‘lishini istamaydi.

Gyotening “Venetsiya epigrammalari” (1790), “Grajdan general” dramasi (1793), “Nemis muhojirlari suhbatlari” novellasi (1794), “German va Doroteya” poemasi (1797) va ana shu qarashlari aks etgan. 1794 yilda Shiller bilan do‘stlashadi, hamkorlikda filistyorlarga qarshi “Kseniya epigrammalari”ni nashr

ettiradi (1796). “Vilgelm Meysterning darbadarlik yillari” (1821-1879) romanlari asosida insonning jamiyat oldidagi mas’uliyati masalasi turadi.

Fransiyadagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, Shiller vafoti Gyote dunyoqarashidagi ziddiyatlarni kuchaytirdi. Endi u Napoleon urushlaridan xarob bo‘lgan, reaksiya g‘alaba qozongan Yevropa voqeligidan qochib, Sharq mavzuiga murojaat qiladi. Shoirning yozishicha, buni “Yevropadagi hayot sharoiti va davr taqozo qildi”. Gyote Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati, adabiyotini chuqur o‘rganadi; Firdavsiy, Anvari, Sa‘diy, Nizomiy, Rumi, Hofiz, Jomiy kabi shoirlar ijodi bilan tanishadi. Hofizni esa ustoz deb biladi. Sharq poeziyasida hayotbaxshlik, inson ongiga ishonch kuchli ekanligi Shoirni hayratda qoldiradi, u qadimgi rimliklarning “Yorug‘lik Sharqdan!” shiorini takrorlaydi. Gyotening “G‘arbiy-Sharqiy devon” she‘rlar turkumi 1819 yilda nashr etildi.

Shu bilan birga Gyote “Faust” fojiasini davom ettiradi. “Faust” Gyotening butun ijodiy faoliyati davomidagi izlanishlarining samarasi, Yevropa ma’rifatchilik qarashlarining, fransuz metafizik materializmi va nemis idealistik dialektikasining sintezidir. Gyote Faust haqidagi afsona 1773 yilda murojaat etgan bo‘lib (“Prafaust”), iblisga imonini sotgan isyonkor doktor Faust obrazi uni umr bo‘yi qiziqtiradi. Fojia qahramoni Faust – harakatchan, doimo izlanuvchan, bilimga, haqiqatga intiluvchi shaxs.

Mefistofel yordamida barcha istaklariga, hatto g‘ayri tabiiy orzulariga ham erishadi. Lekin ko‘zi ojizlangan Faust haqiqiy ideallari real dunyodagina, meg‘natga asoslangan ozod jamiyatdagina amalga oshuvi mumkinligini anglaydi. “Faust” o‘ziga xos uslubda yaratilgan realistik fojidadir. Gyotening “Faust” va boshqa asarlari XIX asr tanqidiy realizmining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Gyote o‘zini faylasuf hisoblamagan. Lekin falsafa hamma vaqt uning ma’naviy qiziqishlarining markazida bo‘lgan. Ulug‘ shoir va olimning butun ijodi nazariy mulohazalar bilan sug‘orilgan. Ular u yoki bu kitobni o‘qish natijasida hosil bo‘lgan tasodifiy fikrlar emas yoki Gyote iborasi bilan aytganda, “o‘zi anglamagan holda” faylasuf bo‘lgan tabiatshunosning majburiy umumlashgan xulosalarimas, balki chuqur mazmunli falsafiy g‘oyalar bo‘lib, garchi izchillik

bilan ifodalanmagan bo'lsa ham Germaniya ma'naviy hayotining qon-qoniga singib ketgan edi va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Gyote Kant ta'limotiga katta hurmat bilan qaraydi. "Kenigsberg qariyasi" asari uning suhbatdoshidek bo'lgan. U Yangi faylasuflardan kimni yuqori qo'yasiz, degan savolga shunday javob beradi: "Hech qanday shubhasiz, Kant ularning ichida eng afzalidir. U o'z natijalari jihatdan eng ta'sirchan ta'limot yaratganlardan biridir. U nemis madaniyatiga hammadan ko'ra chuqurroq kirib borgan. Garchi siz uni o'qimagan bo'lsangiz ham, u sizga ham ta'sir ko'rsatgan. U sizga hozir kerak emas, chunki u sizga siz egallagan narsani berishi mumkin". Va shu yyerda qilgan e'tirofi juda ham muhimdir: "men mustaqil ravishda u qanday yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, shunday yo'lni bosib o'tdim".

Bunga ishonch hosil qilish mumkin. Gyote Kantning "Sof aqlning tanqidi" asarini chuqur o'rganmagan, lekin uning ruhini o'zlashtirgan. Ko'pincha u Kantni ayblaganda, aslida uning fikrlarini qaytaradi. Agar "Sof aqlning tanqidi" o'qib chiqilsa, Gyote Kant bosib o'tgan yo'lni mustaqil bosib o'tganligiga ishonch hosil qiladi. Bunga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas. Kant tomonidan falsafada qilingan burilishning mohiyati shundan iborat ediki, u hayolni tasavvurni bilish nazariyasiga kiritdi.

Estetika sohasida Gyote o'zini Kantga yaqinligini e'tirof etadi "...mana mening qo'limga "Sof aqlning tanqidi" asari tegdi va men bu kitobga hayotimning quvonchli damlari uchun juda ham qarzdorman. Bunda men o'zim shug'ullanayotgan turli mashg'ulotlarimni yonma-yon qo'ydim. San'at asarlari va tabiat bir xil talqin qilinganligini ko'rdim".

Gyote o'z falsafiy qarashlarini gilozoizm deb ataydi. Ular Spinoza hamda Gyotening mustaqil ravishda tabiiy-ilmiy fanlar bilan shug'ullanishining ta'siri natijasida shakllangan. Gilozoizm — materiyaning umumiy jonlanganligi haqidagi ta'limotdir. Gyote uni asta-sekin dialektik g'oyalar bilan boyitadi. Butun borliqning qutblarga bo'linishi g'oyasi bilan birga uning o'sishi, rivoji haqidagi g'oyani ham bayon qiladi.

Tabiat hamma vaqt shoir-mutafakkir nazarida doimo rivojlanib boruvchi yagonaning birligi sifatida qaraladi. “U doimo Yangi timsollar ijod qiladi. Undagi mavjud narsa ilgari yo‘q edi. Ilgari mavjud bo‘lmagan narsa mavjud bo‘lmaydi. Hamma narsa ham Yangi, ham eski. Biz uning ichida yashaymiz, lekin unga begonamiz. U doimo biz bilan so‘zlashadi, lekin o‘z sirlarini ochmaydi. Biz doim unga ta’sir o‘tkazamiz, lekin biz uning ustidan hukmronlik qila olmaymiz”.

Mana shu so‘zlar bilan boshlanadigan “Tabiat” deb nomlanuvchi maqolani ko‘p vaqtlargacha Gyotega mansub deb hisoblaganlar. Garchi bu asar boshqa odam tomonidan yozilgan va faqat 1782 yilda Gyote tomonidan qarab chiqilgan bo‘lsa ham, shoirning o‘zi ham uni qarilik yillarida qo‘lyozma jurnalda nashr qildirganda o‘z asari deb e’lon qilgan. Bu yyerda tabiatga ehtiromli munosabat va uning sirlariga kirib borishga intilish ifodalangan. Tabiatni zo‘rlash haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Inson unga nisbatan chuqur hurmat, muhabbat va sadoqat hissi bilan to‘lgan.

Muhimi shundaki, Gyote keksalik chog‘ida bu maqola muallifligiga da’vo qilgan holda, unga tanqidiy munosabatda bo‘ladi. Uning fikricha, maqolada ikki tushuncha qarama-qarshi tomonlarga bo‘linishi va o‘sish tushunchalari tushib qolgan. “Birinchisi materiyaga tegishli, chunki biz uni moddiy hisoblaymiz. Ikkinchisi — bunga qarama-qarshi. Chunki biz uni ruhiy deb fikrlaymiz. Birinchisi doimiy tortilish va itarilish holatida bo‘ladi, ikkinchisi — doim yuqoriga intiladi. Materiya ruhsiz, ruh esa materiyasiz mavjud bo‘la olmasligi va harakat qilaolmasligi tufayli materiya ham yuqoriga ko‘tarilishga qodir, shuningdek ruh ham tortilish va itarilish holatisiz bo‘lishi mumkin emas”.

San’atkor tabiatga nisbatan o‘zini qanday tutishi kerak? Gyote san’atkorni tabiatga oddiy taqlid qilishdan» ogohlantiradi. “...Biz bunday holat imkoniyatidan hayratga tushamiz, biz hatto ma’lum darajada lazzatlanamiz. Lekin bunday asar bizni haqiqiy lazzatlantira olmaydi. Chunki unga go‘zallik belgisi bo‘lgan san’at haqiqati etishmaydi”.

Oddiy taqlid qilish bu faqat san’at bo‘lag‘asidir. San’atkorlar ilgarilab borishadi, bir individdan ikkinchisiga o‘tadi, to‘liq ko‘rinishlarni o‘rganadi.

Natijada uning ko‘z oldida mohiyat emas, mohiyatning tushunchasi paydo bo‘ladi. Bu jarayon tufayli, shubhasiz, fan uchun namunali, qimmatli tartib-qonunlar vujudga keladi. Lekin ular ruhni lazzatlantirmaydi. Bu yyerda haqiqiy san‘at yo‘q, haqiqiy san‘at faqat san‘atkor aks yo‘lga tushganda vujudga keladi. Bunda san‘atkor hayotidan o‘zining avvalgi cheklangan qarashlariga qaytadan, individga dastlabki go‘zal san‘at butun doirani aylanib, yana qandaydir individga o‘xshash holatiga aylanadi.

Gyote tipiklashtirishni ramziylashtirish deb ataydi: “Haqiqiy ramziylik xususiylik umumiylikni namoyon qilgan joydadir”. Shunday qilib, san‘at alohidalikdan umumiyga, umumiydan yakkaga, xususiyga qarab boruvchi yo‘lni bosib o‘tadi. Xuddi mana shu kategoriya ikki qarama-qarshi qutb hayot va uning mavhum aks etishi o‘rtasidagi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda ko‘rsatilgan yo‘lni “bosib o‘tish” faqat qiyosiydir. Gyote nazariyotchi sifatida san‘atkordan alohidalikni, tushunchani mujassamlashtirish uchun yaratilgan maxsus konstruksiya sifatida yaratmasdan, hech qanday refleksiya, u bilan bir vaqtda yaratishni talab qiladi. Shoir umumiylikni ifodalashda alohidalikka murojaat qilishi yoki alohidalikda umumiylikni ko‘rishi bir narsa emas. Birinchisi kategoriyalarga olib keladi. Ularda alohidalik faqat misol tariqasida, umumiylikning timsoli sifatidagi ma’noga ega. Ikkinchisi esa she’riyatning haqiqiy tabiatini tashkil etadi. She’riyat umumiylik haqida o‘ylamasdan, alohida haqida gapiradi. Shiller uchun (Kant uchun ham) muhim bo‘lgan ongning faolligi Gyoteda fanga taalluqli deb hisoblanadi. Olim san‘atkor singari yakkadan umumiylikka qarab boradi. Dastlab ularning yo‘li bir-biriga mos keladi, lekin natijasi har xil bo‘ladi. San‘atkor faoliyatining yakuni “individga o‘xshash” ko‘rinib turadigan yorqin timsoldir. Fanning maqsadi — “sof hodisa”, aql va hayotning konstruksiyasi.

“Tajriba va fan” asarida Gyote bilimni 3 turga ajratadi: 1. Empirik fenomen — har qanday odam anglashi mumkin bo‘lgan hodisa; 2. Ilmiy fenomen — ilgari ma’lum bo‘lgan sharoitlardan boshqa sharoitlarda qaytariladigan hodisa; 3. Sof fenomen — hech qachon bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydigan, lekin

voqealarning doimiy aloqasida namoyon bo'ladigan hamma tajriba ma'lumotlaridan olinadigan natija. Sof va birlamchi fenomen — bilishning maqsadi “Olim hech mahal sof fenomenni ochiq ko'rmaydi. Uni ifodalash uchun inson aqli empirik jihatdan muhim hamma narsani aniqlaydi. Sof bo'lmaganni ajratadi, chigalliklarni echadi” [1,87].

Gyote aqliy-timsoliy bilish uslubini yaratishga harakat qildi. U bu uslubni tabiatshunoslikda qo'llash mumkin deb hisobladi. U o'z uslubining asosi deb ko'rish, idrok qilish qobiliyatini tushunadi. U o'z g'oyalari haqida “Men ularni ko'zlarim bilan ko'raman”, — deb yozadi. Biz yuqorida ishonch hosil qilganimizdek, u tavsiflayotgan “tur”ni — birlamchi fenomenni aniqlash jarayonida asosiy narsa — fikriy tartiblashtirish qobiliyatidir. Shuni ta'kidlamoq zarurki, Gyote Shillerni bunga ishontira oldi. Shiller “Tajriba va fan” maqolasini o'qigandan keyin uning muallifining fan sohasida haqligini e'tirof etadi. Uningcha uchta har xil fenomen haqidagi tasavvur muammoni echib beradi. Sof holdagi fenomenni qidirish “tabiatning ob'ektiv qonunlari”ni bilishga olib keladi, ob'ektning o'z huquqlarida qayta tiklaydi, “Inson ruhiga uning hamma aqliy erkinligini beradi, unga kuch ishlatishni bartaraf qiladi”. Gyote tomonidan o'rtaga tashlangan uslub keyinchalik “turlashtirish” uslubini deb ataldi. Bu uslub sof mavjud bo'lmagan, haqiqiy jarayonlarni aks ettiruvchi mantiqiy shakllarni tartiblashtiradi. Bu narsa faqat organik dunyoni emas, ko'pincha ijtimoiy madaniy dunyoda ham o'rin egallaydi. Shuning uchun turlashtirish uslubidan birinchi navbatda, ijtimoiy fanlarda foydalanadilar. Shunga o'xshash uslubdan san'at ham foydalanadi. San'atda turlashtirish — badiiy shakllarni tartiblashtirishdir. Bu badiiy shakllar hayotni tipik obrazlarga nisbatan soddaroq holda qayta ifodalaydi. Gyote tipiklashtirish uslubini bilan bir qatorda ushbu badiiy uslubdan ham foydalanadi. Uni nazariy asoslash Shiller zimmasiga tushadi.

«Sodda va hassos she'riyat» deb nomlangan mashhur maqolasida Shiller “Shoirlik geniysi namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan faqat ikki uslub” haqida fikr yuritadi. Uning she'riyatning ikkiga ajralishi haqidagi maqolasi ma'lum ma'noda Gyotening “tabiatga oddiy taqlid qilish” degan maqolasiga javobdir. Bu maqolada

trixotomiya, ya'ni san'at uslubining uch xilga bo'linishi haqida gap ketadi. Gyote bu har uchala uslub haqida ham hurmat bilan gapiradi. Lekin bayon qilish usuli yuqori, mukammalroq uslubdir. Gyote trixotomiyasi, ya'ni she'riyat uslubining uchga bo'linishi haqidagi ta'limoti bitta yagona uslubning afzalligini asoslashga qaratilgan edi.

Gyote Shillerning "Sodda va hassos she'riyat haqida" maqolasida bayon qilingan fikrlar bilan kelishishga moyillik bildiradi. Unda Yangi estetikaning birinchi asosini ko'radi. Gyote, Shiller iborasi bilan aytganda, goh "soda", goh "hassos". U "umumiylashtirish" uslubiga ham, "turlashtirish" uslubiga ham murojaat qiladi. Uning ijodida ikki uslub badiiy shaklni yaratish masalasini echishda birlashadi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun nemis romantizm falsafasi deyiladi?
2. Falsafa tarixida nemis romantizm falsafasining ahamiyati qanday?
3. Gerder tarix falsafasining mazmuni nimada?
4. Gete ijodiga Sharqona She'riyat qanday ta'sir ko'rsatgan?
5. Shillerning estetik utopiyasining mazmuni nimada?

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R., Qobulniyozova G., Ruzmatova G. Yangi va eng Yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi.. O'quv qo'llanma. – ToShkent: Sharq, 2002.
2. Po'latova D., Ruzmatova G. G'arb falsafasi. O'quv qo'llanma. –ToShkent: PREMIER-PRINT, 2011.
3. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. –ToShkent: Sharq, 2002.
4. Gerder I. Idei k filosofii istorii chelovechestva. –M.: Nauka, 1977.